

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA ERTAKTERAPIYADAN FOYDALANISH

*Farg'onan viloyati Farg'onan tumani 2-sonli davlat Maktabgacha ta'lif tashkiloti direktori  
Abdullayeva Moxida Abduraxmonovna*

**Annotatsiya:** Maskurmaqolada ertaklarning bolalar hayotidagi o'rni,xalq ertaklari haqida ma'lumot. Maktabgacha yoshdagи bolalarni mnemotexnika orqali xotira va eslab qolish qobiliyatini rivojlanirish, ertaklar orqali eslab qolish usuli bolaning rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha ta'lif tashkiloti, bola, ertak, xotira, diqqat, tasavvur, qobiliyat, metod

Ertak-bu xalq og'zaki ijodidan bo'lib, u asosan, xalqni hayotidan so'zlab keladi. Sog'lom bolani shakllantirish nafaqat jismonan sog'lomlik, balki fikran sog'lomlik bir maqsadga qaratilgan. Bolalarni sog'lom fikrlashga chorlash degani, ana shu sog'lom fikrlar haqida uqtirish emas, balki uni hayotga tadbiq qilish orqali singdirishdir.

Ota-bobolarimiz, momolarimiz farzand tarbiyasiga azal-azaldan katta e'tibor qaratib kelganlar. O'g'il-qizlarimiz ezbilikka intilib o'ssin, farzandlarimiz el-u yurt koriga yaraydigan, komil inson bo'lib ulg'a yasin, deb ularni kitob o'qishga undaganlar, bir-biridan qiziqarli hikoya, ertak va rivoyatlar so'zlab berishni zinhor kanda qilmaganlar. Negaki, ertaklarda yaxshilik ulug'lanadi, yovuzlik, qoralanadi. Masalan: "Qosim lofchi" ertagida Qosim yolg'on gapirib, pand yeyishi, yolg'on ortidan ketma-ket tashvishlar kelishini eshitgan bolalar yolg'on-yomon odat ekanligini bilishadi va yolg'on gapirmaslikka harakat qiladi. Shunday ekan, bolalarning tarbiyasida ertakning foydasi kattadir. Bolaning hayotida ertak qanchalik muhim? Bu savolga javob izlar ekanmiz. Multfilimlardan misol qiladigan bo'lsak, "Zumrad va Qimmat" multfilimida bola tarbiyasiga ta'sir qilishini tahlil qilamiz. Bolalar ushbu multfilimni tomosha qilar ekan, unda faqat bitta Zumrad va Qimmatni bir xil ko'rinishini biladilar. Bu esa, bolaning fikrlashi, o'yplashi sust bo'lishiga turtki bo'ladi. Ertak eshitayotgan bolaning ongi va fikrlash doirasi keragicha ishlaydi. Yuqorida aytiganidek, multfilimda faqat bir xillik ko'rinsa, ertaklarda esa aksincha, ertaklarni eshitib borayotgan bolalar o'zicha o'ylaydilar. O'zini Zumradini, Qimmatni ong ostida gavdalantiradi. Bu esa bolaning fikrlash doirasini kengayishiga juda katta samara beradi. Bugungi davrda yosh avlodni axborot -kommunikatsiya texnologiyalariga o'ta berilib ketishdan asrab, mutolaaga o'rgatish o'rniiga, o'zimiz bunga sharoit yaratib berayotganimiz oydek ravshan bo'lib, yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Xalqimizda bir gap bor. "Bolani besh yoshgacha yozilmagan qog'oz"- deydilar, ya'ni nimani yozsang, keljakda shuni o'qiysan. Tili endigina chiqqan farzandingiz savollar berib, odamni esangkiratib qo'yadi. Aynan shu davr juda ham muhim, negaki, bola bu davrda ko'zi bilan ko'rib turib uni nima ekanligiga aqli yetmaydi. Siz farzandingizni aqli yetmagan narsa, buyum, jonzotlarni erinmasdan tushuntirsangiz maqsadga muvofiqdir. Afsuski, ayrim yosh onalar bu payt farzandini noo'rin jerkib tashlaydi. Albatta, bu noto'g'ri, chunki bola bunday vaziyatda onasidan so'rashga qo'rqib qoladi. Farzandingizni tili chiqib endigina qadam tashlayotgan kichkintoyingiz juda g'ayratli va serharakat bo'ladi. Uning har kuni lug'at boyligi boyib, o'sib boradi. Aynan shu paytda

farzandingizga nima o'rgatsangiz, tez ilib oladi. Unda syujetli o'yinlarga ehtiyoj tug'iladi. Agar shunday vaziyatda farzandingizga aytib bergen ertaklariningizni u bilan obrazga kirib o'ynasangiz, foydadan holi bo'lmaydi.

Ertak bolaga hayotni anglash, oqni qoradan farqlash hamda ezgulikni yovuzlikdan ustин qo'yishga undaydi. Unda insonparvarlik, vatanparvarlik, do'stga sadoqat, yorga vafodorlik, shu yo'lда qahramonlik, jasorat ko'rsatish kabi fazilatlar ulug'lanadi, zulm va zo'ravonlik qoralanadi. Barchamizga ma'lum ertaklardan "Susambil"da hayvonlar, birlashib bo'rilar ustidan g'alaba qozonadilar, bu esa o'z navbatida bolalarga kuch birlikda, ahillikda ekanligini uqtiradi. "Oltin tanga" ertagida esa halollik ulug'lanadi. Ertak bolaning xulq-atvoridagi salbiy xususiyatlarni ijobjiy tomonga o'zgartiradi, masalan: yolg'onchilik, qo'pollik, badjaxillik, o'g'rilik, dangasalik, yig'loqilik, qo'rquv kabilarning to'g'ri so'zlik, muloyimlik, oqko'ngillik, ozodalik, mehnatsevarlik, botirlik va jasurlik tuyg'ulariga o'girishga samarali yordam beradi.

Ertakning muhim xususiyatlaridan biri, uning har doim xalq hayoti, kurashi, tarixi, psixologiyasi, dunyoqarashi, urf-odatlari bilan juda yaqin bog'langan bo'lishi, bolalarga axloqiy va ma'naviy, jismoniy kuchga ishonch ruhi bilan boydir. U bolaga butun real va tabiatdan tashqari kuchlarning bo'ysungani ifodalaydi. "Ertaklarda bola tabiati va ijtimoiy hayotda o'ziga dushman bo'lgan qarshi kuchlarga kurashda doim g'olib chiqadi va bolaning hayotga tayyorlashda ko'maklashadi desak, mubolag'a bo'lmaydi".

Har bir ona ertaklarni o'z farzandlariga obrazli va qiziqarli tarzda aytib berishsa, farzandlari hayoti davomida ezgulik, yaxshilik, insonparvarlik hamda vatanparvarlik tuyg'usi ostida voyaga yetadi.

O'ziga xos tarbiya vositasi bo'lgan ertaklar bolajonlar uchun juda qiziqarli va qadrliidir. Ertaklar bolaning dunyoqarashini kengaytirib, uning hayotga ongli munosabatini shakllantiradi. Bola ertak orqali yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlikni bir-biridan farqlashni o'rgatadi. Bu tushuncha uning psixologiyasida bir umrga muhrlanib, voyaga yetganidan keyin u ezgu ishlarga odatlanadi. Har bir ona ertaklarni o'z farzandlariga obrazli va qiziqarli tarzda aytib berishsa, farzandlari hayoti davomida ezgulik, yaxshilik, insonparvarlik hamda vatanparvarlik tuyg'usida voyaga yetadi.

Dono xalqimiz "Ertaklar-yaxshiliklar yetaklar", deb bejiz aytishmagan. Ertaklar bolalarning ongi va qalbiga ezgu fazilatlarni jo qilishda, ularning ma'naviy olamini boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular yordamida bolalarning xotirasi, diqqate'tibori, tafakkuri rivojlanadi. Ertaklarni tinglash til va nutqning taraqqiy etishini belgilab beradigan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Boladagi ayrim nutqiy kamchiliklarni hikoya va ertaklar eshitish, she'r yodlatish, shuningdek so'zlarni to'g'ri talaffuz qildirish va turli xil mashqlar bajarish orqali bartaraf etish mumkin.

Ertak mazmuni asosida bolalarda ezgu xislatlarni tarbiyalash, insoniy fazilatlarni targ'ib etish, ular o'rtasida o'zaro do'stona munosabatlarni shakllantirish va mustaqil fikrlashga o'rgatish kerak. Jumladan, hayvonlar haqidagi "Tulkining taqsimoti" ertagida ayyorlik va tilyog'lamatlik tulki obrazi orqali ifodalangan. "Uch og'a-ini botirlar" ertagi ota nasihatni bilan boshlanadi. Botirlar obrazida axloq va odobning yuksak namunasi odamiylik, donishmandlik, jasurlik kabi sifatlar namoyon bo'ladi. Tarbiyachi tomonidan ertak o'qib bo'lingach, bolalarni umumiy xulosa chiqarishga undash lozim. "Agar sen uning o'rnida bo'lganingda nima qilgan bo'lar eding?", kabi savollar berib, erkin muloqotga chaqirish ularning faolligini oshirishga yordam beradi. Har bir ertakning o'z g'oyasi bor. "Sehrli sholg'om" ertagi bolalarni fikrlashga, voqealarni ketma-ket aytishga undab, "Kuch birlikda" degan

g'oyani anglab yetishini ta'minlasa, "Zumrad va Qimmat" ertagida Zumradning mehnatsevarligi ulug'lanadi. Qimmat esa dangasa, ishyoqmas sifatida gavdalanadi.

Bolalar ertakni tinglash orqali qissadan hissa chiqarishga o'rgatiladi. Shuningdek, ertaklarni mahorat bilan bolalarga o'qib berish, kichkintoy bilan his-hayajonli muloqotni o'rnatishga, sezdirmay tarbiyaviy ta'sir qilishga, atrof-muhit haqidagi bilimi va ma'lumot zaxiralarini samarali to'ldirishga imkon yaratadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ertaklarni bolalarga yetkazishda yangi pedagogik texnologiya asosida bolalarning so'z boyligini oshirishga, ularning nutqini o'stirish, tafakkuri va ma'naviyatini rivojlantirishga qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi zamonda bolalarda nutqni rivojlantirish dolzarb muammo, maktabgacha yoshdag'i bolalar uchun izchil nutqning ahamiyati tufayli. O'qituvchi bolalarni nutq faolligiga rag'batlantirishi kerak, shuningdek, nutqni rivojlantirishga katta e'tibor berish va bolalar nutqini rivojlantirish uchun samarali zamонавиу texnologiyalarni topish muhimdir. Albatta, ta'lim texnologiyasini tanlash bolalarning yoshi, o'qituvchining o'zi va bolalar oldiga qo'yadigan maqsad va vazifalari bilan belgilanadi. Innovatsion texnologiyalar ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga, dunyoga nostandard qarashni, yangicha fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan. Ertak terapiyasi quydagi muammolarni hal qilishga imkon beradi: Nutqni takrorlash, uchinchi shaxsda hikoya qilish, birgalikda hikoya qilish va aylanada hikoya qilish, shuningdek, o'z ertaklarini yozish yordamida nutqni rivojlantirish. Bolaning ijodiy qobiliyatlarini aniqlash, ularning rivojlanishiga yordam berish. Agressivlik va tashvish darajasini pasaytirish. Muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish. Qo'rquv va qiyinchiliklarni engib o'tishni o'rganish. Tuyg'ularni to'g'ri ifoda etish qobiliyatini rivojlantirish.

Ertak terapiyasi orqali maktabgacha yoshdag'i bolaning nutqini rivojlantirish uning nutq qobiliyatini yaxshilashning eng samarali va qulay usuli hisoblanadi. Dramatizatsiya o'ynlari, dramatizatsiyalar samarali ta'sir ko'rsatadi bolalar nutqini rivojlantirish. O'yinda - dramatizatsiya, dialog va monologlarni takomillashtirish, nutqning ekspressivligini rivojlantirish. O'yin dramatizatsiyasida bola reenkarnasyonda, yangi va tanish kombinatsiyalarda o'z imkoniyatlarini bilishga intiladi. Bu o'yin-dramatizatsiyaning ijodiy faoliyat, bolalar nutqini rivojlantirishga hissa qo'shadigan faoliyat sifatida o'ziga xosligini ko'rsatadi. Va nihoyat, o'yin - dramatizatsiya - bu maktabgacha yoshdag'i bolalar bilan ishlashda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvga mos keladigan bolaning o'zini namoyon qilish va o'zini o'zi anglash vositasi. Yuqoridagi texnologiyalar maktabgacha yoshdag'i bolalar nutqining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Zamонавиу ta'lim texnologiyalari intellektual jasur, mustaqil, o'ziga xos fikrlaydigan, nostandard qarorlar qabul qila oladigan ijodiy shaxsni shakllantirishga yordam beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida" 2020 yil 22 dekabrdagi 802-sonli qaroriga

2.O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595-sonli Qonuni.

3.Matrizayeva B.S "Maktabgacha yoshdag'i bolalarning rivojlanishi va tarbiyasida ertaklarning ahamiyati" TA'LIM FIDOYILARI. ISSN:2180-2130 VOL.I, ISSUE I IYUN(2022)

4. Sodiqova Sh.A - "Maktabgacha pedagogika." – 2013 yil.
5. ALAVUTDINOVA GANIEVNA, N. (2015). PLACE OF PROFESSOR AYYUB GULOMOV IN FORMING OF MORPHOLOGICAL VIEWPOINTS IN UZBEK LINGUISTICS OF XX CENTURY. *Electronic Turkish Studies*, 10(12).
6. Karimova, V. M., & Akramova, F. A. (2000). Psixologiya (ma'ruzalar matni). Nodira ALAVUTDINOVA, Muqaddas ABDURAHMONOVA.
7. Мухитдинова, М., & Эшмаматова, М. (2021). Мировая Культура, Неповторимая Литература В Памяти Великого Поэта Мухаммада Аминхужа Мукими. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 2(4), 71-73.
8. Saydiyevna, K. G. (2023). THE USE OF ALLUSIVE UNITS IN POETRY. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(4), 1132-1136.
9. Keldiyorova, G. S., Qurbonova, N. N., Fatxullaxodjaev, M. Z., & Rixsiyeva, L. A. (2022). Didactic Functions and types of Role-Playing Games that Contribute to the Development of Communicative Foreign Language Speech Skills. *Specialusis Ugdymas*, 1(43), 10577-10582.
10. Saydiyevna, K. G. (2023, April). O 'ZGA TILLARNI O 'QITISHDA INTERNETNING O 'RNI. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS* (Vol. 1, No. 14.04, pp. 110-113).